

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

“RAVZAT US-SALOTIN” TAZKIRASIDA AMIR ALISHER ZIKRI

Fotima DAVLATOVA

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU talabasi

fotimadavlatova1010@gmail.com

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14804883>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Hirot tazkirachilik maktabining davomchisi bo‘lgan shoir Faxriy Hiraviyning “Ravzat us-salotin” tazkirasi hamda mazkur asarda mumtoz adabiyotimizning ulug‘ siymosi Alisher Navoiy haqida berilgan ma‘lumotlar xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, Faxriy Hiraviy, tazkira, nazm, ijod.

Аннотация: В этой статье рассматривается тазкире "Равзат ус-салатин" поэта Фахри Хирави, последователя гератской школы тазкира, и упоминание в этом произведении великого представителя нашей классической литературы Алишера Навои.

Ключевые слова: Алишер Навои, Фахри Хирави, тазкире, поэзия, творчество.

Annotation: This article examines the tazkira "Ravzat us-salatin" by poet Fakhri Hiravi, a follower of the Herat school of tazkira, and the mention of Alisher Navoi, the great representative of our classical literature, in this work.

Keywords: Alisher Navoi, Fakhri Hiravi, tazkira, poetry, creativity.

XVI asr yarmining mashhur adiblaridan Sulton Muhammad Faxriy Hiraviy tazkiranavis va muarrixlar taxminlariga ko‘ra 1497-1498-yili dunyoga kelgan. Manbalarda olim, shoir fozil, fasih, xushmijoz, xushta‘b, xushxat, iftixori zamon, zubdat ul-muallifin (mualliflar sarasi), deb ta‘riflanadi. Uning otasi nazm ta‘biga ega, g‘oyat ma‘rifatli shaxs bo‘lib “Amiriy” taxallusi bilan she‘rlar yozgan. Faxriy Hiraviy Alisher Navoiyning “Majolis-un nafois”(1521-1522) asarini ilk bor chig‘atoy tilidan fors tiliga tarjima qilib, “Latoyifnoma” nomini bergan. Ushbu asarda o‘zi tomonidan fikr va tafsillar bilan bir qatorda alohida 9-majlisini qo‘shgan. Shuningdek, “Tuhfat ul-habib” (“Do‘stlar tuhfası”) sarlavhali forsiy she‘rlar majmuasi adabiyotchilar orasida “Radoyif ul-ashor” deb ham yuritiladi. She‘r nazariyasiga oid “Sanoye ul-husn” (“Go‘zal san‘at”) nomli ilmi bade, tarixiy rivoyatlardan tashkil topgan “Haft kishvar” (Yetti mamlakat) tasavvufiy risolasi, “Bo‘stoni xayol”, “Ravzat us-salotin” (“Sultonlar bog‘i”), “Javohir ul-ajoyib” (“Ajoyib javohirlar”) kabi asarlar va turkiy “Devon” ham tuzgan.

Hirot tazkirachilik maktabining vakili Faxriy Hiraviyning “Ravzat us-salotin” (“Sultonlar bog‘i”, 1551-1555) tazkirasi o‘z davrining noyob adabiyotshunoslik asaridandir. Tazkira 1968-yil pokistonlik olim Sayyid Husomiddin Roshidiy tomonidan Haydarobodda nashr ettirilgan. Asar ilk bor filologiya fanlari doktori, professorlari Suyuma G‘aniyeva va Jaloliddin Jo‘rayevlar tomonidan fors tilidan o‘zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilingan va 2014-yil chop etilgan. Asarda XVI

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

asrgacha bo'lgan davrda Movorounnahr, Xuroson, Iroq, Hindiston hamda Rumda yashagan ijodkor podshoh va podshohzodalar, hukumdorlar dargohida yuksak mavqega ega bo'lgan yoki yarim mustaqil tarzda viloyat boshqargan nazm ta'biga ega amirlarning shaxsiyati va ijodiy faoliyati xususida ma'lumot berilgan.

Faxriy Hiraviyning "Ravzat us-salotin" tazkirasida Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asari ta'sirida bitilgan. Odoobi tasnifga ko'ra, an'anaviy Allohga hamd va Payg'ambar na'ti bilan boshlanadi. "Olam Sultonlarining iqbol ravzasini adolat va ehson rayhoni bilan muzayyan va muattar qilgan Tangriga beqiyos sipos va sitoyish bo'lsin" [1,13]. Asar muqaddima va yetti bobdan iborat bo'lib, sakson bir nafar ijodkor (sulton va amirlar) haqida ma'lumotlar jamlangan.

"Ravzat us salotin" tazkirasining "Nazmga mayl ko'rsatgan saltanotosor amirlarning ahvoli zikri" nomli ikkinchi bobi she'riyat olamiga ixlosi baland amirlarga bag'ishlangan. Ular orasida Alisher Navoiy nomi ham alohida zikr qilinib, unga mag'firatpanohiy deya ta'rif berilgan.

Faxriy Hiraviy tazkiradagi Hazrat Navoiyga bag'ishlangan fiqrada unga quyidagicha ta'rif bergan "Uning ahvolining sharhi shu qadar ko'pligidan bayon chegarasiga sig'maydi. Xoqoni mag'furning lutfi inoyati bilan amirlik ishini nihoyasiga yetkazgan edi. Oxir Mozandaron poytaxti bo'lgan Astrobot hukumatidan qo'lini tortdi va she'r va shoirlikka e'tibor qaratdi" [2,108]. Hiraviyning Navoiyga bergan ushbu ta'rifini navoiyshunos Shuhrat Sirojiddinov o'z asarida quyidagicha izohlagan: "Avval muhrdorlik vazifasiga musharraf bo'ldi. Oqibat uning (sulton tomonidan) tarbiyati shunday darajaga yetdiki, sultonning nomdor birodarlari, komkor farzandlari uning mulozamatini sharaf deb bilishib, iftixor qila boshlashdi. Ko'pligi hozirgacha sezilib turgan shuncha davlati bo'lsa ham darveshlikni afzal deb bildi. Bir daqiqa ham suluk ahlining daqiqliklaridan chetlashmadi. Chunonchi, bir bor o'z ixtiyori bilan dunyo ishlaridan qo'l tortdi va taqvvu toat go'shasiga yuzlandi. Ammo saltanat ishlari uning olamoro fikriga bog'liq bo'lgani uchun sohibqiron sulton uni mashaqqat vodiysidan qaytardi va Mozandaron poytaxti bo'lmish Astrabot mulkini unga tutqazdi. Amir u yerda bir yil sokin bo'ldi va yana qaytdi. Uning ko'ngli hamisha darveshlikni ixtiyor etgani uchun bir yildan keyin sohibqiron sulton mulozamatiga qaytdi va boshqa bormadi. Himmat samandini hamisha o'zida mavjud bo'lgan xayol – andisha ustiga haydadi va sultonning boshqa iloji qolmadi. (U) hukumat va ishlarni sultonga topshirdi va yuzini fazl-u kamol arboblari tarbiyasiga burdi" [3,289].

Demak, Navoiyning darveshlikni ixtiyor qilib o'zini Alloh yo'lida xizmat qilishga bag'ishlashni afzal ko'rishidan, uning uchun davlat, shon-u shuhrat muhim emasligini anglashimiz mumkin.

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Saltanatni tark etgandan keyin ham har kuni viloyatdagi ko'chmas mulklaridan o'n besh ming kepakiy miqdorda xazinasiga tushib turgan mablag'ni turli-tuman qurilishlar, ta'mir ishlariga, imorat, rabot, masjid, xonaqoh, ko'prik qurilishi, fuqaro va miskinlarga xayriya sifatida sarflab turgani qayd etiladi. Vafotiga qadar ham xayriya tariqasida uch yuz oltmishta bino qurdirib, shu jumladan, to'qsonta rabot va qolgani boshqa xayriyalar ekanligi ta'kidlangan. Navoiyning shaxsiyati bilan bir qatorda uning asrlar osha o'tib kelayotgan boy ma'naviy me'rosini ham sanab o'tadi. "Nazm daftari musannafoti ko'pdir. Turkiy "Xamsa" va turkiy to'rt devon tartib bergan. Devonning nomi: birinchisi – "G'aroyib us-sig'ar"dir. Ikkinchisi – "Navodir ush-shabob"dir. Uchinchisi – "Badoye ul-vasat"dir. To'rtinchisi – "Favoyid ul-kibar"dir [4,109]. Shu bilan birga boshqa kitoblarini ham sanab o'tadi. "Mahbub ul-qulub", "Nazm ul-javohir", "Nasoyim ul-muhabbat", "Qissai Shayx San'on", "Turkiy munshaot", "Mufradot dar fani muammo va aruz", "Majolis un-nafois", turkiy "Tazkirat ush-shuaro" kabilarni sanab o'tadi.

Hiraviy shoir ijodidan namuna tarzida "Navodir ush-shabobdan"dan bir g'azal va "Tuhfat ul-afkor" qasidasidan matla' keltiradi. "Mana bu matla' uning "Daryoyi abror"ga tatabbu' qilgan qasidasidir. Matla':

*Otashin la'liki toji xusravonro zavar ast,
Aygari bahri xayoli xom puxtan dar sar ast.*

[Podshohning tojidagi otashin la'l, Boshlaridagi xom xayollarini pishirish uchun yongan uchqundir [5,110].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Faxriy Hiraviyning "Ravzat us-salotin" tazkirasida ham boshqa manbalar – Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro", Mirxondning "Ravzat us-safo", Xondamirning "Makorim ul-axloq" va "Habib us-siyar" singari Alisher Navoiy fenomenini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

(Использованная литература / References):

1. Faxriy Hiraviy. Ravzat us-salotin. – Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2014. – B.13.
2. Faxriy Hiraviy. Ravzat us-salotin. – Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2014. – B.108.
3. Alisher Navoiy: manbalarining qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili // Sh.Sirojiddinov. – T.: Akademnashr, 2011. – B. 289.
4. Faxriy Hiraviy. Ravzat us-salotin. – Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2014. – B.109.
5. Faxriy Hiraviy. Ravzat us-salotin. – Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2014. – B.110.
6. B.Axmedov "Navoiy zamondoshlari xotirasida." G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti,1985.220-b.
7. Sirojiddinov. Sh. Alisher Navoiy manbalarining qiyosiy-tipologik tekstologik tahlili. - T.:Akademnashr, 2011.326-b.
8. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov. O. Navoiyshunoslik Darslik.-T.:TAMADDUN,2018.
9. M. Sharipova Muhammad Faxriy Hiraviyning "Ravzat us -salotin" tazkirasida o'zbek va mo'g'ul xonlari zikri. Maqola.